

**FOLKLORSHUNOSLIKDA OLOV BILAN BOG'LIQ DINIY-IRFONIIY
QARASHLAR XUSUSIDA.**

*Karimova Feruza Mo'minovna
BDPI o'qituvchisi, f.f.d. (PhD).*

Elmurodova Umida

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi II kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek folklorshunosligida olovga aloqador qarashlarning diniy – irfoniiy xususiyatlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Xorazm, Hurjamol, animistik tasavvurlar, afsona, olov, suv, qush, o'simlik, ulkan maxluq, Zardusht, urf-odatlar, marosimlar.*

**РЕЛИГИОЗНО-МИСТИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЯХ ОБ ОГНЕ В
ФОЛЬКЛОРЕ**

*Каримова Феруза Муминовна
Преподаватель БДПИ, к.ф.н.*

Элмуродова Умида

Студент 2 курса начального образования

Аннотация: *В статье дается научно-теоретический анализ религиозно-мистических особенностей представлений, связанных с огнем, в узбекском фольклоре.*

Ключевые слова: *Хорезм, Хурджамал, анимистическое воображение, миф, огонь, вода, птица, растение, гигантское существо, зороастризм, обычаи, ритуалы.*

RELIGIOUS AND MYSTICAL IDEAS ABOUT FIRE IN FOLKLORE

*Karimova Feruza Muminovna
Lecturer of BDPI, PhD*

Elmurodova Umida

2nd year student of primary education

Annotation: *The article provides a scientific and theoretical analysis of the religious and mystical features of ideas associated with fire in Uzbek folklore.*

Keywords: *Khorezm, Khurdzhamal, animistic imagination, myth, fire, water, bird, plant, giant creature, Zoroastrianism, customs, rituals.*

Olov kulti haqidagi qarashlar juda qadimiy bo'lib, ular islomgacha shakllangan diniy-mifologik tushunchalarga borib taqaladi. Aniqrog'i, uning ildizi ruhlarga ishonchdan iborat animistik tasavvurlar, Quyosh bilan bog'liq astral (kosmogonik) miflar orqali zadushtiylik dinining mazmuniga singgan.

Mif va olov munosabati epik ijodda ko'pincha ajdarho timsolida aks ettirilgan. Ajdaho og'zidan mislsiz olov purkaydigan ulkan maxluq. Xalq xazina bor yerda ajdar bo'lishiga ishongan. Ular go'yo xazina qo'riqchilaridir. Masalan, "Xorazm va Hurjamol" afsonasida ajdarning ko'rinishi o'xshatish va mubolag'a san'ati asosida: "Gavdasi tog'dek, og'zi katta o'raday, har tishi oy boltaning tig'iday emish. Qon to'la ko'zlari yonib turgan ajdaho og'zidan olov sohib, har biri bamisoli chinordek keladigan panjalarini yerga tiragancha ulkan gavdasini bazo'r sudrab yurar, shu qadar uzunligidan dumi qayerdaligi bilinmasmish. O'tdek chaqnayotgan ko'zlari quyosh nuriday o'tkir, har nafas olganda paydo bo'lgan shamol chor-atrofni chang-to'zonga ko'mib yuborayotganmish" deya badiiy tasvirlangan.

Antropogonik miflarda insonning "o'tda yonmasligi, suvga cho'kmasligi" orzusi alohida talqin etilgan. Bu motiv jahon xalqlari folkloridagi mushtarak motivlardan biri ekani Odisseyning olov daryosidan tirik o'tishi, Alpomishning esa olovda yondirilsa-da, o'lmasligi motivlari mazmuniga singdirilganiga guvoh bo'lish mumkin. Bu epik motiv agiografik afsonalar syujetida ham uchraydi. Shuni inobatga olib, M.Rahmonova: "Afsonalarda olov, suv, qush va o'simlik kultlari bilan bog'liq qarashlarning ifodasi alohida o'rin tutishini, jumladan, olov kulti bilan bog'liq qarashlar olov timsoli shaxslantirilgan afsonalar syujetida yorqin ko'zga tashlanishini" maxsus qayd etadi. Darhaqiqat, "Qari olov xo'ja" afsonasida ko'rsatilishicha, Xorazmda Qari olov xo'ja degan muqaddas joy bo'lgan ekan. Unda aytilishicha, musulmon xo'jalari g'oyatda g'ayritabiny kuchga ega ekanki, ular olovda ham yonmas ekanlar. Buni sinab ko'rish uchun bir podsho ellik arava

o'tin keltirib, uning o'rtasiga xo'jani o'tirg'izib qo'yib, so'ngra olov yoqishni buyuribdi. Alanga so'nganidan keyin xo'janing kul-puliyam qolmagandir, deb o'ylagan odamlar ne ko'z bilan ko'rsinlarki, haligi xo'ja soppa-sog', biror tukiya kuymasdan, o'tda yonmasdan o'tirganmish. Shunda otashparastlar bu holdan hayron qolib, islomning qudratiga tan berishgan ekan.¹

Ushbu afsonada otashparastlik diniga xos qarashlar o'rnini asta-sekin islom dinining g'oyalari egallaganiga ishora qilinmoqda.²

“Avesto”da Mitra – quyosh xudosi sifatida ko'rsatiladi. U baxt-saodat ramzi hisoblanadi. Negaki, olovni ardoqlash, unga sig'inish – Zardusht dini, qadimgi turkiy xalqlar hayotida juda rivojlangan. Masalan, Narshaxiy ma'lumotlariga ko'ra, Muqanna o'zini uch kun qizitilgan tandirga tashlaydi. Sababi, osmonga chiqib, olov farishtalarini olib kelib, o'z dushmanlarini yengmoqchi bo'lgan.

A.Ashirov aytib o'tganidek, zardushtiylikning biror-bir marosimi olovga e'tiqod ramzi – olovsiz o'tmagan.³ Olov o'chirilmasdan saqlangan va begonalar hamda g'ayridinlar nazar-nafasidan asralgan. O'choq yoxud otashgohning kuli ham muqaddas hisoblanib, aziz joylarga ko'mib saqlangan. Bundan tashqari, har bir turar joyda shu xonadon chirog'i uning qo'ri va alangasini doimo yoqib saqlaydigan oilaviy otashgohlar (olovxona, otashkada, o'txonalar) ham bo'lgan. Ular ko'pincha maxsus ajratilgan va pokiza tutilgan xonalarda tashkil etilib, olov maxsus yasalgan o'choq yoki kursi shaklidagi postament (asos, tagkursi) ustida yoqib saqlangan. Hozir ham har bir xonadonda tandirxona, o'choqxona qurish odati saqlanib kelmoqda. Tandır qurib, unga birinchi marta o't yoqqanda o'tin bilan birga ho'kiz shoxi ham qo'shib yoqilgan. Shu asosda oilaning to'kin, nonning mo'l-ko'l bo'lishi umid qilingan.

Tandır nomi bilan bog'liq maqollar ham mavjud. Ularda “Tomosha tandir boshida”, “Suprasida uni yo'q, Tom boshida qo'sh tandir”, “Xamir qormasdan tandirga o't yoqma”, “Yetilmagan xamir tandirda turmas” deya o'git beriladi.

¹ Ипак йўли афсоналари. Тузувчи, нашра тайёрловчи М.Жўраев. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.42.

² Раҳмонова М.Р. Ўзбек халқ афсоналари бадиияти: Филол. фан. док-ри... диссертацияси. – Т., 2019. – Б.160.

³ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.69.

Asosan, olov yoqish, uni saqlash va ovqat pishirish uchun o'choqlar qurilgan. O'choq deganda, ustiga qozon o'rnatiladigan uch tomoni yopiq qurilma tushuniladi. Arxeologik qazilmalar asosida o'choqning ilk namunalari paleolit davriga xosligi aniqlangan. Olov bilan bog'liq diniy-irfoniy qarashlar tufayli o'choq yoki o'choq boshidan turli urf-odatlar, marosimlarni o'tkazishda foydalanilgan. Barcha xalqlarda o'choq (pech) muqaddas joy hisoblangan. Quyi paleolitda o'choqlar toshdan, so'ngra guvala, g'ishtdan yasalib, somonli loy bilan suvalgan.

Hozirgi davrda o'choqning yer-o'choq, loy o'choq, temir o'choq, gaz o'choq singari turlari bor bo'lib, ular katta-kichikligiga qarab ham katta o'choq, kichik o'choq tarzida turlicha nomlanadi.

To'y va sayllarda, sumalak, halim, halisa, umuman olganda, katta ma'raka oshlarini pishirishda aylanasi doshqozon gardishiga mos maxsus (yer baravarida, qozon atroflari alanga chiqmaydigan qilib tuproq bilan zichlangan va suvalgan) yero'choqlar kavlangan. Bunday o'choqlar o'z vazifasini o'tab bo'lgach, buzib tashlangan.

Kundalik osh-ovqat tayyorlash uchun esa xonadonlar oshxonalarida loy o'choqlar qurilgan. Ular ham loy bilan suvalgan va doimiy ishlatilgan. Loy o'choq ishlatish an'anasi hozirgacha qishloqlarda saqlanib qolgan. Shaharlarda esa ko'pincha ko'chma o'choqlardan foydalaniladi. Bunday o'choqlar odatda, temirdan yasaladi. Temir o'choqlar ko'chma o'choq vazifasini bajaradi. Ular nima bilan yoqilishiga qarab, o'tin o'choq va gaz o'choq deb yuritiladi. Gaz o'choqqa nisbatan xalq orasida "gaz plitka" nomi ham ishlatiladi. U rus tili ta'sirida o'zbek tiliga o'zlashgan. Gaz o'choq faqat tabiiy gaz bilan yondiriladi. Loy va temir o'choqlarga ko'pincha o'tin yoki tezak yoqiladi. Gaz uchun "zangori olov" degan tasviri ifoda qo'llanadi. Xalq topishmoqlarida gazga "Yonsa tutun chiqmaydi, Hech yerga gard yuqmaydi"⁴ deb, ta'rif berilgan. Darhaqiqat, gazdan hosil bo'lgan olovning tutuni bo'lmaydi. U yonganda hech qayerni qoraytirmaydi. O'tin va ko'mir esa yongan joyini qoraytiradi.

⁴Ўзбек халқ топишмоқлари, 322-бет.

Keyingi paytlarda tok kuchi bilan ishlaydigan o'choq, ya'ni "elektr plitka"lar ancha keng tarqalib ketdi. Shuni inobatga olib, elektr plitkalar ta'riflangan topishmoqlar ham yaratildi. Ulardan birida "O'chog'i bor, mo'risi yo'q. Cho'g'i bor, kuyasi yo'q"⁵ deya, elektr plitkaga ishora qilingan. Bu bilan uning an'anaviy o'choqlardan farqi va afzalligiga e'tibor qaratilgan. Haqiqatan ham, elektr plitkaning mo'risi, cho'g'i va kuyasi bo'lmaydi. Ammo gaz plitka tepasiga mo'rikan qo'yilishi mumkin.

O'choqlar ishlatilish vaqtiga qarab ham farqlanadi. Bu jihatdan ularning "yoz o'choq" (yozda ishlatilgan) va qish o'choq kabi (qishda ishlatilgan) turlari borligi ma'lum. Shuning uchun ayrim maqollarda "qish o'chog'i" birikmasi ishlatilgani diqqatni tortadi. Masalan: "Qish o'chog'i tor, Tur uyingga bor".⁶

O'choq kabi tandirning turlari ham ko'p. Masalan, yurtimizda uning "yer tandir", "devor tandir" singari turlari o'rnatilishiga qarab, "qalama tandir", "tosh tandir" esa nimadan tayyorlanishi jihatidan, "uy tandir", "to'y tandir", "nonvoy tandir", "somsa tandir", "go'sht tandir" kabi turlari esa qayerda nimani pishirishga mo'ljallanganiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

"Yer tandir" ko'pincha ko'chmanchi urug'lar (turk, qarluq, qatag'on, barlos kabi) tomonidan ishlatilsa, "devor tandir"lardan esa o'troq aholi bo'lgan chig'atoy, xo'jalar ko'proq foydalanishgani aytiladi. Nonni xalq, omma uchun erkak nonvoylar yopsa, xonadonlarda bu ishni ayollar bajarishgan. Bunda dastlab tandir o'tda yaxshi qizdirilib, keyin qo'lga yenglik kiyib, non xamiri rapida yordamida tandir betiga yopib pishirilgan.

Chorvachi aholi non pishirishda "toza toshlar"dan ham foydalangani kuzatiladi.

Tandirning paydo bo'lishi va undan foydalanishning boshlanishi miloddan avvalgi II mingyillikka, bronza davriga bog'lanadi. Bronza davridan boshlab insonlar tandirdan foydalanib, undan kundalik ehtiyoji uchun kerak bo'ladigan non va boshqa narsalarni pishirgan.

⁵Ўзбек халқ топишмоқлари, 197-бет.

⁶Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б.293.

Yurtimizda Sopollitepa yodgorligida yashagan insonlar tandirdan foydalanganligi va o'sha davrda tandir yasashning texnologiyasi haqida ma'lumot olingan. Sopollitepa yodgorligining bir qancha xonalaridan tandir va o'choqlarning qoldiqlari topilgan. Bundan tashqari, tandir bilan bog'liq urf-odatlar ham mavjud.

Xullas, o'z hayotiy ehtiyojidan kelib chiqib, qadimdan insonlar olovni o'ziga yaqin ko'makdosh, homiy (kult) sifatida qaragan, shu asosda uni muqaddaslashtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.K.F.Muminovna. GENESIS OF THE ORIGINS OF THE UZBEK PEOPLE'S VIEWS ON FIRE. Chiet Editor.

2.F.Karimova. PEOPLE'S VITAL NEED FOR FIRE.International Conference on Business Management and Humanities 1(1).130-133.

3.Akhmadovich H. H. Khoja nasriddin afandi as people's hero //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 2. – C. 1562-1565.

4.Akhmadovich K. K. Symbolism of Birds in Uzbek Literature //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 4. – C. 59-63.

5. Hayitov H. A. Literary influence and artistic image //Экономика и социум. – 2019. – №. 8. – C. 11-14.

6.Ahmadovich H. H. Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – C. 101-105.